

QIMOR VA TAVAKKALCHILIKKA ASOSLANGAN BOSHQA O'YINLARNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

Tadjiev Azamat Alibayevich

**O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
"Tergov faoliyati" kafedrası katta o'qituvchisi**

Murodiloev Farrux Otabekovich

**O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
3-bosqich kursanti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11147693>

Annotatsiya: Mazkur maqolada so'nggi yillarda nafaqat dunyoda balki mamlakatimizda ommalashgan va o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatayotgan qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarning sodir etilishi holatlari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: qimor, javobgarlik, ma'muriy, kodeks, jinoyat, qonunga xilof.

Article: This article discusses the dispersion of gambling not only throughout the globe, but also our country in a breakneck pace and its' side effects, as well as, occasions that committed.

Keywords: gambling, liability, Administrative code, Criminal code, illegal.

Аннотация: В данной статье рассматривается распространение азартных игр не только по земному шару, но и по нашей стране с бешеной скоростью и его побочные эффекты, а также случаи, которые совершили.

Ключевые слова: азартные игры, обязанность, Административный кодекс, Уголовный кодекс, незаконный.

So'nggi paytlarda onlayn qimor o'yinlari ayrim toifadagi insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bunday o'yinlar natijasida nafaqat moliyaviy ta'sirga, balki qaramlikni keltirib chiqaruvchi hissiy ta'sirga ham tushib qolish holatlari ko'p uchramoqda. Milliy urf-odatlarimiz va mentalitetimizga, shuningdek, diniy qarashlarimizga yot bo'lgan qimor o'yinlarini noqonuniy ravishda tashkil etish holatlari, ayniqsa, onlayn tarzda ommalashib, o'smir va yoshlarni o'z domiga tortayotgani achinarli holatlardan biridir. Hattoki, bunday o'yinlarda ko'p miqdoridagi pulni yutqazib qo'yib, oxir-oqibat o'z joniga qasd qilish yoki yutqazib qo'ygan pulni to'lash uchun jinoyat sodir qilish holatlari ham yuz bermoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda respublikada totalizator va bukmekerlik faoliyatini amalga oshirish va albatta, bunday xizmatlarni reklama qilish noqonuniy hisoblanadi. Bu borada 2022-yilda o'tkazilgan 1 105 ta o'rganishlarda 102 ta holatda bunday noqonuniy xizmatlar reklamasini aniqlangan. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda 30 dan ortiq totalizator va bukmekerlik reklamasini noqonuniy ravishda yurituvchi saytlarga kirish cheklab qo'yildi.

Binobarin, mamlakatimizda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish hamda o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278-moddasida jinoyat sifatida belgilab qo'yilgan. Qolaversa, bunday o'yinlarda qonunga xilof ravishda ishtirok etish, shuningdek, voyaga yetmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda ishtirok etishga jalb qilish O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 191-moddasida ma'muriy huquqbuzarlik sifatida e'tirof etilgan.

Jumladan, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o'tkazish, shu jumladan, ana shunday o'yinlar uchun qimorxonalar tashkil

etish yoki ularni saqlash yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga jalb qilish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud to'rt oygacha qamoq bilan jazolanadi. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish yoki o'tkazish uchun telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog'i provayderlari tomonidan xizmatlar ko'rsatish, tegishli dasturiy ta'minotdan nusxa ko'paytirish, tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi".

Bu borada xorij tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Germaniyada qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar bilan bog'liq jinoyatlar Jinoyat kodeksining "G'arazli jinoyatlar" bo'limidan joy olgan hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda ishtirok etgan shaxs uchun belgilangan jazo esa 6 oygacha etib belgilangan.

References:

1. *Б.Б.Муродов. Жиноят-процессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларнинг ўқитишнинг замонавий муаммолари. Тошкент. Ўзбекистон Миллий университети ҳуқуқшунослик факультети. – 2009. Б. 66-69.*
2. *Б.Б.Муродов. Жиноят-процессуал муносабатларда ҳимоячининг иштироки // “Адвокатлик фаолияти: назария ва амалиёт масалалари” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. ЎЗР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. – Тошкент, 2010. Б. 171-175.*
3. *Б.Б.Муродов. Хусусий айблов институтини қўллаш самарадорлигини ошириш йўллари // Хусусий айблов ва ярашув институтларини такомиллаштириш чоралари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015 й. Б. 34-40.*
4. *Б.Б.Муродов. “Жиноятларни тергов қилиш методикаси” фанидан ўқув дастури. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. Б.24*
5. *Б.Б.Муродов. Предварительное следствие в органах внутренних дел. Учебник. Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2014. 395 Б.*
6. *Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга ҳилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятларни квалификация қилишнинг муҳим жиҳатлари. “Талқин ва тадқиқотлар” Республика илмий-услубий журнали 10-сон. 01.10.2022 йил Б. 105-109.*
7. *Ш.Ш.Суюнов. Kompyuter texnika vositalari orqali sodir etilgan firibgarlik jinoyati turlari. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 9.06.2023 йил <https://doi.org/10.5281/zenodo.8019653> Б. 45-48.*
8. *Ш.Ш.Суюнов. Ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг*

жиноят содир этган шахсларни аниқлаш ҳамда уларнинг айбини исботлашдаги аҳамияти. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8019766> Б. 60-62.

9. Ш.Ш.Суюнов. Some aspects of qualifying drug-related crimes. Корея Республикасининг “Digital Fashion Conference” журнали 5.10.2022 йил Б. 13-15

10. А.Т.Аширбоев. Айбланувчининг қаерда эканлиги номаълум бўлган ҳолларда жиноят ишини тўхтатишнинг назарий ва амалий жиҳатлари. Жамият ва инновациялар № 1 (2024).– 2024. – 314-320 б.

11. А.Т.Аширбоев. Жиноят ишини тўхтатиш тушунчаси ва аҳамияти. Эксперт-криминалистик фаолият: истиқболлар ва инновациялар мавзусидаги халқаро конференция материллари тўплами. Т., Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси, 2023. – Б. 381-388.

12. А.Т.Аширбоев. Айбланувчининг иштирокини таъминлаш имкони бўлмаган тақдирда дастлабки терговни тўхтатиш: Назария ва амалиёт. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси № 1 (2024).– 2024. – 95-98 б.

13. А.Й.Абдуллаев. Гувоҳнинг ёки жабрланувчининг бида туриб ёлғон кўрсатув бериши жиноятларини содир этиш изларининг юзага келиш механизмларининг ўзига хос жиҳатлари. Сиёсатшунослик, ҳуқуқ ва халқаро муносабатлар журнали. 2023 йил.

14. А.Й.Абдуллаев. Гувоҳнинг бида туриб ёлғон кўрсатув бериши сабаблари. Евразийский журнал права, финансов и прикладных. 2023 г.

15. А.Й.Абдуллаев. Гувоҳ ва жабрланувчини сўроқ қилишнинг тактик жиҳатлари. Евразийский журнал права, финансов и прикладных. 2022 г.

16. А.Й.Абдуллаев. Транспорт воситалари ҳаракати ёки улардан фойдаланиш хавфсизлиги қоидаларини бузиш жиноятининг сабаблари ва уни содир этилишига имкон берган шарт-шароитлар (Хоразм вилояти мисолида). Евразийский журнал права, финансов и прикладных. 2023 г.